

8-dars. Ko'p xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish



1. Shoxchalardan yig'indisi **yaxlit son** bo'ladigan **juftliklarni** toping.



2. Hisoblashda yo'l qo'yilgan **xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to'g'ri hisoblang.

$$\begin{array}{r} * 8056 \\ 16408 \end{array}$$


$$\begin{array}{r} * 9320 \\ 72568 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} * 4025 \\ 29175 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} * 2708 \\ 8104 \end{array}$$



3. Rasimga qarang. To'g'ri to'rtburchakning yuzi qanday topilganini tushuntiring.



$$S_{\square} = a \cdot (b + c) \text{ yoki}$$

$$S_{\square} = a \cdot b + a \cdot c, \text{ demak,}$$

$$a \cdot (b + c) = a \cdot b + a \cdot c$$

↓
**ko'paytirishning
taqsimot xossasi**



4. **Ko'paytirishning taqsimot xossasi** yordamida ko'paytmalarni namuna bo'yicha hisoblang.

$$45 \cdot 67 = 45 \cdot (60 + 7) = (45 \cdot 60) + (45 \cdot 7) = 2700 + 315 = 3015$$

$$36 \cdot 45$$

$$93 \cdot 74$$

$$73 \cdot 24$$

$$62 \cdot 23$$

$$81 \cdot 19$$

$$76 \cdot 34$$

Ko'p xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish uchun ikki xonali son o'nlik va birliklar yig'indisiga ajratiladi. So'ng ko'p xonali son ularning har biriga alohida ko'paytiriladi va hosil bo'lgan natijalar qo'shiladi.

$$276 \cdot 39 = 276 \cdot (30 + 9) = 276 \cdot 30 + 276 \cdot 9 = 8\,280 + 2\,484 = 10\,764$$



5. Ko'paytirishning taqsimot xossasidan foydalanib, ifodalarning qiymatini hisoblang.

$249 \cdot 54$

$329 \cdot 45$

$485 \cdot 62$

$535 \cdot 34$



6. Mashina 12 soat davomida 68 km/h tezlikda harakatlandi. Agar u xuddi shu tezlikda 15 soat harakatlansa, necha kilometr ko'p yo'l bosadi?



7. 80 sonining **bo'luvchilarini** ayting.

1

0

3

15

25

5

40

23



8. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $26\,483 + 26 \cdot 45 - 18 \cdot 34$

b) $98\,485 - 12 \cdot 35 - 48 \cdot 23$

9. Madina 12 kun davomida har kuni 25 tadan, Safi esa shuncha kun davomida har kuni 36 tadan misol yechdi. Qizlar jami nechta misol yechishgan?

	1 kunda yechilgan misollar soni	kunlar soni	jami yechilgan misollar soni
Madina	25 ta misol	12 kun	? ta misol
Safi	36 ta misol	12 kun	? ta misol

} ? ta misol

